

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!



2024 йил
25 апрель
№ 17 (958)



○ Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри ○

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

ИНСОНПАРВАРЛИК ЁРДАМИ

Мамлакатимиз раҳбарининг топшириғига мувофиқ, Қозоғистон Республикасида юз берган сув тошқинлари оқибатида катта зарар кўрган аҳолига инсонпарварлик ёрдами юборилди. 15 та юк автомашинасидан иборат юклар ФВВ ходимлари назорати остида Қарағанда вилоятига етиб келди.



Озиқ-овқат маҳсулотлари, аёллар, болалар ҳамда эркаклар уст-бош кийим-кечаклари, кўрпача, ёпинғич, ёстиқлар, гигиеник воситалар, махсус қурилмали чодирлар, резина қайиқ тўпламлари ва яна бошқа бир қатор зарур маҳсулотлардан иборат бўлган инсонпарварлик ёрдами Ўзбекистон Республикаси Президентининг Оролбўйи минтақасини барқарор ривожлантириш масалалари бўйича маслаҳатчиси Т.Худайбергенов томонидан топширилди. Шу муносабат билан ташкил этилган маросимда Ташқи ишлар вазири ўринбосари Бобур Усмонов ва Фавқулодда вазиятлар вазири ўринбосари Шуҳрат Жўраев ҳам иштирок этди.

Қайд этилганидек, Ўзбекистон Марказий Осиё мамлакатлари, жумладан, Қозоғистон билан ўзаро ишонч ва яхши қўшничиликка асосланган муносабатларни ривожлантириш йўлидан бормоқда. Халқларимиз нафақат яқин қўшни, балки қардош сифатида кўп қиррали ҳамкорликнинг барча масалалари бўйича азалдан бир-бирларини тушуниб, қўллаб-қувватлаб келган. Ўтган йиллар давомида бу алоқалар янада мустаҳкамланди, мамлакатларимиз яхши қўшни ва ўзаро манфаатли ҳамкор сифатида тараққиёт йўлидан елкама-елка боришмоқда. Аслида, тили, дини бир, тарихи туташ, маданияти муштарак бўлган ўзбек ва қозоқ халқлари дўстлиги узоқ ўтмишга бориб тақалади. Ўзаро алоқалар, айниқса, кейинги йилларда янада мустаҳкамланди. Бу эса ўз навбатида, халқларимиз ўртасидаги савдо-иқтисодий, маданий-гуманитар ришталарга, алоқаларга янгича мазмун бағишляпти.



Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



ҲАЙЪАТ ЙИҒИЛИШИ

Фавқулодда вазиятлар вазирлигининг 2024 йил 1-чорак якунларига бағишланган Ҳайъат йиғилиши ўтказилди. Вазир генерал-майор А.Қўлдошев раҳбарлигида видеоконференцалоқа орқали онлайн ва офлайн тарзда ташкил этилган мажлисда вазирлик томонидан амалга оширилган ишлар сарҳисоб қилиниб, келгусидаги режалар белгилаб олинди.

ФВВ Марказий аппарат, ҳудудий бошқармалар ва таркибий тузилмалар раҳбар ходимлари иштирок этган тадбирда фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш, ёнгин хавфсизлигини таъминлаш ва фуқаро муҳофазаси соҳасида амалга оширилган ишлар сарҳисоб қилиниб, мавжуд муаммолар, уларнинг ечими бўйича

амалга оширилиши лозим бўлган долзарб вазифалар кўриб чиқилди. А.Қўлдошев мамлакатимиз раҳбарияти томонидан аҳоли ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш борасида амалга оширилаётган комплекс чора-тадбирлар ҳақида тўхталиб ўтди. Шунингдек, фавқулодда вазиятларнинг олдини олишга қаратилган аниқ чора-тадбирлар юзасидан аниқ таклиф-мулоҳазаларини баён этди.

Танқидий руҳда ўтказилган муҳокамалар давомида фавқулодда вазиятлар рўй бериш хавфини барвақт аниқлаш бўйича мониторинг, таҳлил ва прогноз қилиш тизимини янада кучайтириш, аҳолининг барча қатламларини фавқулодда вазиятлар-

нинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилишга тайёрлаш ишларини тизимли равишда олиб бориш зарурлиги қайд этилди. Шунингдек, фавқулодда вазиятлар хавфи юзага келганда ёки бундай вазиятлар рўй берганда аҳолини ўз вақтида хабардор қилиш бўйича алоқа ва хабар беришнинг автоматлаштирилган тизимларини амалиётга кенг жорий қилишни давом эттириш борасида ҳам сўз юритилди.

Қолаверса, келгусида амалга оширилиши лозим бўлган устувор вазифалар белгиланиб, ҳар бир соҳавий йўналиш бўйича республика, вилоят, туман, шаҳар даражасида тадбирлар самардорлигини ошириш юзасидан масъул раҳбарларга аниқ топшириқлар берилди.



ТАЙИНЛОВ

Фавқулодда вазиятлар вазирининг тегишли буйруғи билан полковник Исмоилов Илҳом Исмоилзода Сурхондарё вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармаси бошлиғи лавозимига тайинланди.

Тайинловга қадар полковник Исмоилов Илҳом Исмоилзода Самарқанд вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармаси бошлиғи лавозимида фаолият юритган.

Шу муносабат билан вазирлик раҳбарияти Илҳом Исмоиловга келгусидаги хизмат фаолиятларида омад ва зафарлар тилаб қолади.

ЯНГИ БИНО

Хоразм вилояти Қўшқўпир тумани ФВ бўлими ёнгин-қутқарув қисмининг янги биноси фойдаланишга топширилди.

Бинонинг тантанали очилиш маросимида вилоят ҳокими ўринбосари, туман ҳуқуқ-тартибот идоралари ходимлари, фахрийлар ва маҳалла фаоллари иштирок этдилар.

Тадбирда сўз олганлар бинода шахсий таркиб учун барча шарт-шароитлар яратилганини таъкидлашди. Қайд этилганидек, замонавий қутқарув асбоб-анжомлари, бугунги кун талабига мос келадиган шинам ўқув хоналари, янги компьютерлар, спорт майдончаси, ўқув-машгулотлари минораси ходимларнинг касбий маҳоратини янада оширилишига хизмат қилади. Жуда шарафли ҳамда ўта масъулиятли вазифаларини юқори савияда бажариш учун бор куч-ғайратини, шижоатини сафарбар этишга ундайди.

ВАЗИФАЛАР БЕЛГИЛАНДИ

Миллий гвардия қўмондонлигида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчилик профилактикасига бағишланган мулоқот бўлиб ўтди.

Унда Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурорининг биринчи ўринбосари О.Холбоев иштирок этди.

Онлайн ва офлайн ўтган тадбирда қўмондонлик таркибий тармоқлари ҳамда тизимдаги ҳарбий қисм ва муассасалар масъуллари қатнашдилар.

Жараёнда жамоат хавфсизлигини таъминлаш, ҳуқуқбузарлик

ва жиноятчиликнинг олдини олиш ҳамда фаолиятга доир бошқа масалалар, шунингдек, бу борадаги амалий ишлар натижалари атрофлича муҳокама қилинди.

Фаёз АШУРОВ,
Республика Ҳарбий прокуратураси бўлим ҳарбий прокурори, адлия подполковниги.

ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА

Тошкент шаҳар Учтепа туманидаги 109-умумтаълим мактабида “Ёш гвардиячилар” синфи ташкил этилди.

Миллий гвардия Тошкент шаҳри бўйича бошқармаси ва Тошкент ҳарбий прокуратураси ҳамкорлигида ўтказилган очилиш маросимида педагог ходимлар, кенг жамоатчилик вакиллари ва ота-оналар иштирок этдилар.

Давлат мадҳияси билан бошланган тантана ўқувчиларнинг бадиий чиқишлари, “Ёш гвардиячилар”нинг қасамёди ва ватанпарварликни мадҳ этувчи турли сахна кўриниш-

лари билан давом этди.

Умид қиламизки, “Ёш гвардиячилар” синфи келажак авлодни Ватанга муҳаббатли ва садоқатли, маънан ҳамда жисмонан соғлом, фидойи бўлиб каломга етишларига хизмат қилади.

Жалолиддин Мангуберди ҚУТЛИМУРАТОВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия лейтенанти.

Қашқадарё вилояти ФВБда “Шахсий таркибни ёт ғояларга қарши иммунитетни шакллантиришда ахборот истеъмоли маданиятининг ўрни. Кибермакондаги диний контент мазмуни” мавзуда семинар ташкил этилди.

МУҲИМ МАВЗУДА



Тадбирда ахборот жамиятининг шаклланиши шароитида сиёсий, маданий, ижтимоий ҳаётда диннинг роли, диний мазмундаги виртуал таҳдидлар ва кибермакондаги географик боғлиқликлар хусусида батафсил тушунчалар берилди.

Т.ТУРАЕВ,
Қашқадарё вилояти ФВБ шахсий хавфсизлик бўлими бошлиғи, подполковник.

ЭРТАМИЗ ЭГАЛАРИ

Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан олис ҳудудларда жойлашган мактабларда ватанпарварлик тадбирлари мунтазам ўтказиб келинмоқда.

Бухоро гарнизонида жойлашган ДХХ чегара қўшинларига қарашли ҳарбий қисмда вилоятнинг олис чегараолди ҳудудидаги умумтаълим мактаби ўқувчилари ўртасида “Ёш чегарачи” ҳарбий спорт мусобақасининг вилоят босқичи ўтказилди.

Унда Бухоро ҳарбий прокуратураси масъуллари, Ёшлар иттифоқи вилоят кенгаши ва ҳарбий қисм вакиллари иштирок этдилар.

Мусобақада ёшларда соғлом турмуш тарзини шакллантириш, ўз иродаси, кучи ва имкониятларига бўлган ишончни янада мустаҳкамлаш, мардлик, ватанпарварлик, она-Ватанга садоқат туйғуларини оширишга муҳим аҳамият қаратилди.

Мусобақа сўнггида ғолиб жамоаларга эсдалик совғалари топширилди.

Муҳаммаджон БОЗАРМИРЗАЕВ,
Бухоро ҳарбий прокурори, адлия подполковниги.

ЭЛ-ЮРТ ОСОЙИШТАЛИГИ ЙЎЛИДА

Чорак асрдан кўп бир тизимда фаолият кўрсатиб, кўплаб шогирдлар тарбиялаб, жамоадолларининг ҳурмат-эътиборини қозониш барчага ҳам насиб этавермайди.

Подполковник Содиқ Ибрагимов ана шундай бахтга эришган ходимлардан биридир. Нафақага кузатиш тадбирида Марказ раҳбарияти, фахрийлар ва шахсий таркиби иштирок этди. Тадбирда илиқ фикрлар айтилиб, С.Ибрагимовга эзгу тилаклар билдирилди. Анъанага кўра, подполковник С.Ибрагимовга тўн кийдирилиб, қимматбаҳо совғалар топширилди.

Содиқ Ибрагимов 1993 йилда Самарқанд Давлат қурилиш

меъморчилик институтининг курувчи муҳандис мутахассислиги бўйича тамомлаб, хизмат фаолиятини 1995 йилнинг апрель ойида Самарқанд вилояти Пастдарғом тумани ИИБ ёнғин хавфсизлиги бўлинмаси давлат ёнғиндан сақлаш инспекцияси инспектори лавозимидан бошлаган. Кейинчалик Самарқанд вилояти ИИБ Ёнғин хавфсизлиги бошқармасида турли раҳбарлик лавозимларида фаолият олиб борган.

2016 йилнинг апрель ойдан

ФВВ Бошланғич тайёргарлик ва малака ошириш маркази бошлиғининг ўринбосари лавозимидан хизмат фаолиятини давом эттирди. Ўзбекистон Республикаси “Мустақиллигининг 25 йиллиги” кўрак нишони, 2017 йил Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирининг фахрий ёрлиғи, 2018 йил Ёнғин хавфсизлиги Бош бошқармаси бошлиғининг “Ёнғиндан сақлаш хизмати аълочилиги” кўрак нишонлари билан ҳамда 2021 йил ФВВнинг “Аъло хизматлари учун” идоравий кўрак нишони билан рағбатлантирилган.

Ф.МАВЛОНОВ,
ФВВ БТваМОМ бўлим бошлиғи, подполковник.
Н.АБДУРАСУЛОВА,
марказ кичик инспектори, I-даражали сержант.

XXI АСРНИНГ ЖИДДИЙ МУАММОСИ

Бутун дунёда автомобиль sanoati ўсгани сайин инсонларнинг йўл транспорт ҳодисаларидан жабр кўриш эҳтимоли ошиб бормоқда. Бугунги кунга келиб йўл транспорт ҳодисаларидан энг кўп азият чекадиганларнинг катта ҳиссаси ривожланаётган ва нисбатан қолақ мамлакатларга тўғри келмоқда. Транспорт инфраструктурасини яхши йўлга қўйган иқтисоди бой мамлакатлар эса бу муаммоларни бирин-кетин енгиб бормоқда.

Маълумотларга кўра, ҳар йили 1,3 миллион одам йўл транспорт ҳодисаси қурбони бўлади. 20-50 миллион одам жароҳатланади ва улардан кўпчилиги ногирон бўлади. Йўл-транспорт ҳодисалари одамларга, уларнинг оилаларига ва умуман давлатларга катта иқтисодий зарар келтиради. Бу йўқотишлар даволаниш харажатлари, шунингдек, жароҳатлари тўғрисидаги ўлган ёки ногирон бўлганлар,

шунингдек, жароҳатланганларга ғамхўрлик қилиш учун ишдан ёки мактабдан дам олишлари керак бўлган оила аъзолари учун маҳсулдорликни йўқотишдан келиб чиқади.

Йўл-транспорт ҳодисалари 5-29 ёшдаги болалар ва ёшларнинг ўлимининг асосий сабабидир.

Ўртача тезликнинг ошиши тўғрисидаги авария эҳтимоли ва унинг оғир оқибатларига олиб келади. Масалан, ўртача тезликнинг ҳар 1 фоиз ўсиши ҳалокат хавфини 4 фоизга ва жиддий ҳалокат хавфини 3 фоизга оширади.

Спиртли ичимликлар ва ҳар қандай психоактив модда ёки гиёҳвандлик воситаларини истеъмоли қилган ҳолда транспорт воситасини бошқариш ҳалокат ёки ўлимга олиб келади.

Хавфсизлик камарини тақиш ҳайдовчилар ва олдинги ўриндикларда ўлим хавфини 45-50

фоизга, орқа ўриндикларда ўлим ва жиддий шикастланиш хавфини 25 фоизга камайтиради.

Ҳайдаётганда чалғиш, хусусан ҳайдовчилар уяли телефон ишлатган ҳолда автоҳалокатга учраш эҳтимоли тахминан 4 баробар кўпроқ. Бошқарув пайтида телефондан фойдаланиш реакция вақтини секинлаштиради ва тўғри чизиқда бўлиши ва кейинги масофани тўғри сақлашни қийинлаштиради.

Қўнғироқсиз телефонлар қўлда ишлайдиган телефонларникидан кўра, хавфсизроқ эмас ва SMS ёзиш ҳалокат хавфини сезиларли даражада оширади. Булар йўл транспорт ҳодисаси содир бўлинининг асосий омиллари саналади.

Н.БОЙХОНОВ,
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси бўлим катта прокурори, адлия подполковниги.

Тошкент шаҳар ФВБ томонидан Сергели туманидаги “Иттифоқ”, “Қурувчилар”, “Қут-барак”, “Нилуфар” ҳамда “Саховат” маҳаллаларида оталиққа олинган 7 та тоифадаги 4936 нафар ёшларнинг маълумоти тузилиб, шулардан 1755 нафари манзилли ўрганиб чиқилди.

ОТАЛИҚҚА ОЛИНГАН ЁШЛАР

Амалга оширилган ишлар туман ҳокимияти ҳузурида тузилган ишчи гуруҳ Штабига ҳамда кунлик ва ҳафталик ишлар бўйича ҳисоботлар Тошкент шаҳар ФВБга тақдим этиб борилмоқда.

Абдурашид ТУРАХАНОВ,
Сергели тумани ФВ бўлими бошлиғи, подполковник.



УЧ АВЛОД УЧРАШУВИ

Тошкент шаҳар ФВБда уч авлод учрашуви ташкил этилди.

Тадбирда Тошкент шаҳар 2-секторидан оталиққа олинган ёшлар, бошқарма ҳарбий хизматчилари, ФВВ фахрийлари, нафақадаги полковниклар Э.Икромов, М.Мирзойитов, С.Охунов, ва Э.Жумановлар иштирок этдилар.

Учрашувда ёшларга ҳарбий ватанпарварлик умумий тарбиянинг таянчи эканлиги, Ватанни севиш, уни асраш, она юрт олдидаги фарзандлик бурчини юксаклик билан

бажариш, ёшларни қутқарувчилик касбига ва Қуролли Кучларимизга нисбатан ижобий фикрларини янада ошириш, соғлом, кенг фикрлайдиган, ўз сўзига эга баркамол инсон сифатида эзгу ишларга даъват этувчи тушунчалар берилди. Учрашув якунида ёшларга китоблар совға қилинди.

И.БЕКЖОНОВ,
Ўзбекистон Республикаси
Бош вазир котибияти ва
автохўжалиги биноларида
ЎХТТЭБ инспектори,
капитан.



Навоий шаҳар Абдулла Қодирий номидаги Ахборот-кутубхона марказида “Энг яхши ёш китобхон” танловининг ҳудудий босқичи бўлиб ўтди. “НКМК” АЖ ва “Навоийуран” корхоналари объектларида Ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш маркази ва унинг жойлардаги бўлимларининг ҳарбий хизматчилари иштирокида ўтказилган илм-маърифат баҳси таасуротларга бой кечди.

Тадбирда вилоятдаги журналист ва ижтимоий тармоқ сайтлари масъуллари ҳакамлик қилишди. Унда танлов иштирокчилари ўз истеъдод ва билимларини эркин намойиш этишлари ва ўқиган китоблари, уларнинг қаҳрамонлари, муаллифларнинг

ҲУДУДИЙ БОСҚИЧ

ҳаёти ва ижоди тўғрисида эркин ва бемалол сўзлашларига шароит яратилди.

Танловнинг ҳудудий босқичи якунларига кўра, унда биринчи, иккинчи ва учинчи ўринларни эгаллаган ғолиблар марказ бошлиғининг диплом ҳамда эсдалик совғалари билан тақдирландилар.

Ихтиёр ЖУМАЕВ,
марказ тарбиявий ва мафкуравий ишлар гуруҳи бошлиғи, подполковник.

Маъруфжон ҲАЙИТОВ,
марказ ёнғинга қарши тарғибот гуруҳи бошлиғи, катта сержант.

* * *

Яшнобод тумани ФВ бўлимида уч авлод учрашуви тадбири ўтказилди.

Унда тизимда кўп йиллар фидокорона ва самарали хизмат қилган нафақадаги полковник Д.Тўхтамуродов, ИИВ Яшнобод тумани ЙХХБ маъмурий амалиёт бўлими инспектори ва туман 2-руҳий касалликлар шифохонаси психотерапевт шифокори, АДЖУ университети талабалари ҳамда бўлим офицер-



лари, ҳарбий хизматчилар ва оталиққа олинган ёшлар иштирок этдилар.

Акбарали ҲАЙИТБОЕВ, Яшнобод тумани ФВ бўлими инспектори, катта лейтенант.

* * *

Навоий кон-металлургия комбинатининг Шимолий кон бошқармаларида ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш бўлимида уч авлод учрашуви ташкил этилди. Бундан НКМК ДК ОЎХТТЕ марказидан меҳмонлар, нафақадаги фахрийлар ва ёш авлод вакиллари иштирок этдилар.



Ўзаро суҳбат ва мулоқотларда мамлакатимизда инсон омилига юксак эътибор берилганлиги, давлатимиз раҳбари ташаббуси билан жамиятимизнинг ҳар бир аъзосига ғамхўрлик, меҳр-оқибат кўрсатилаётгани, инсон кадр-қиммати, унинг орзу-ниятларини рўёбга чиқаришга имконият яратиб бериш устувор вазифага айлангани бот-бот таъкидланди.

Шундан сўнг ёш авлод вакиллари ўзларини қизиқтирган саволларига жавоб олдилар ва бир қанча ёшлар ФВВ Академиясига ўқишга кириб, ушбу тизимда ишлаш истаги борлигини билдирдилар.

Э.ХОМИТОВ, Ф.УЛУҒОВ,
ШКБ ОЎХТТЭБ инспекторлари,
оддий аскарлар.

УМУММИЛЛИЙ ЛОЙИҲА ДОИРАСИДА

“Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси доирасида Тахياتош тумани ФВ бўлими шахсий таркиби томонидан қисм ҳудудининг яшиллик даражасини ошириш ва яшил боғ барпо этиш мақсадида 1500 туп манзарали ва мевали дарахтлар экилдди.

Шу билан бирга бўлим шахсий таркиби ўзларининг маҳаллаларига, кўчаларига ва яшаш уйлари олдидаги томорқаларига ҳам манзарали ва мевали дарахтлар экиб, юртимизнинг ривожланишига, шунингдек, яшиллик даражасининг янада ошишига ўз ҳиссаларини қўшдилар.

Т.ЮСУПБАЕВ,
Тахياتош тумани ФВ бўлими катта инспектори, катта лейтенант.
Ш.НАРБАЕВ,
бўлим бўлинма бошлиғи, капитан.



* * *

“ИЭС” АЖ “Тўрақўрғон ИЭС” филиали ОЎХТТЕБ ҳарбий хизматчилари ҳамда “ИЭС” АЖ “Тўрақўрғон ИЭС” филиали ходимлари ҳамкорлигида корхона ҳудудида “Яшил макон” ҳамда “Яшил белбоғ” умуммиллий лойиҳалари доирасида станция атрофидаги ер майдонларига жами 12578 туп манзарали ва мевали дарахтлар кўчатлари экилган бўлиб, уларни агротехник талабларга мувофиқ парвариш-лаш мақсадида 17,2 км. узунликдаги томчилатиб суғориш тизимлари яратилди.

А.ТУРСУНМЕТОВ,
“ИЭС” АЖ “Тўрақўрғон ИЭС” филиали ОЎХТТЕБ бошлиғи, капитан.

ТЕЗКОР ЙИҒИЛИШ

Наманган вилояти ФВБда тезкор йиғилиш бўлиб ўтди. Унда вилоят ФВДТ ҳамда шаҳар, туман ҳокимликлари иштирокида аҳоли ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш, фуқаро муҳофазаси ва ёнғин хавфсизлиги соҳасида амалга оширилиши лозим бўлган вазифаларни белгилаш юзасидан келишиб олинди.

Қаҳрамон САТТОРОВ, Наманган вилояти ФВБ ахборот хизмати бошлиғи, капитан.

ДОВОНДА ОБОДОНЛАШТИРИШ

Халқимизда азалдан тозалик ва орасталикка, ободончилик ишларига алоҳида эътибор қаратилган.

“Қамчиқ” довоида ҳам ана шундай анъана, ҳашар “Қамчиқ” МҚЁҚБ ходимлари томонидан амалга оширилди. Кўчалар, ариқлар тозаланиб, дарахтлар оқланди.

Ш.ҚУДРАТОВ, “Қамчиқ” МҚЁҚБ ББ ММИ ва КБТБ ўринбосари, капитан.



SINOV

Uychi tumanidagi 37-umumta'lim maktabida "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilar klublari o'rtasida tuman musobaqasi o'tkazildi. Musobaqada tumandagi barcha maktablar ishtirok etdi.



Ishtirokchilar bir necha bosqichda o'zaro bahslashdilar. Har bir o'quvchi musobaqada ishtirok etish bilan birga, o'z ijodiy ishlari ko'rgazmasini tashkil etdi. Musobaqaning umumiy natijalariga ko'ra, 1-o'rin 45-umumta'lim maktabi, 2-o'rin 36-umumta'lim maktabi, 3-o'rin esa 41-, 24-umumta'lim maktablari jamoalariga nasib etdi.

Musobaqa yakunida g'oliblar va barcha qatnashchilarga esdalik sovg'alari, diplomlar tantanali topshirildi.

Sardor BAXRONOV,
Uychi tumani FV bo'limi inspektori, katta leytenant.

G'uzor tumani "Qorako'l" MFY hududida viloyat FVB, Qishloq xo'jaligi, Sog'liqni saqlash, O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari, chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmati, tuman hokimligi mas'ul xodimlari hamda kuch-vositalar ishtirokida "Zararli chigirtkalarga qarshi kurashish tadbirlarini tashkil etish va amalga oshirishda FVDT xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

CHIGIRTKAGA
QARSHI

Nazariy qismda yig'ilganlar chigirtkalarga qarshi kurash tadbirlarini samarali tashkil etishning tamoyillari va zamonaviy usullari bo'yicha viloyat O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi, chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmati mutaxassislari ma'ruzalari tinglandi.

Amaliy qismda esa tegishli xizmatlar mutaxassislari tomonidan chigirtkalarni tar-

qalishining oldini olish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni tashkilashtirish, chigirtkalar ko'payishi o'choqlarini aniqlash, ularning tarqalib ketishi va qishloq xo'jaligi ekinlariga zarar yetkazishi xavfini bartaraf etish bo'yicha birlamchi tashkiliy va amaliy tadbirlar bajarildi.

Erkin ARZIQULOV,
Qashqadaryo viloyati FVB bo'linma boshlig'i, podpolkovnik.

Sirdaryo tumanida Qrim-Kongo gemorragik isitma kasalligi va unga qarshi chora-tadbirlar yuzasidan ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

KO'RGAZMALI MASHQ

Unda kuzatuvchi va o'rganuvchi sifatida viloyat FVB, IIB hamda SSB mas'ul xodimlari va boshqa daxldor tashkilotlar vakillari ishtirok etdilar.

Dastlab, 8-bolalar musiqa va san'at maktabida seminar o'tkazilib, unda viloyat FVB bo'lim boshlig'ining "Viloyat hududida QKGI kasalligining oldini olish borasida mavjud kamchiliklar, muammolar va takliflar" mavzusidagi, shuningdek, viloyat SEO va JSB boshlig'i birinchi o'rinbosari hamda viloyat Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi bo'lim boshlig'ining ma'ruzalari ishtirokchilarga yetkazildi. Shuningdek, viloyatda QKGI kasalligining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar, muammolar, nuqson va kamchiliklar, ularni kelgusida bajarilishi bo'yi-

cha taklif, tavsiya va ko'rsatmalar berilib, zaruriy eslatmalar tarqatildi.

Mashqning amaliy qismi 2 ta o'quv nuqtasida o'tkazildi. Dastavval, "Gulbuloq" mahallasidagi aholi xonadonlarida veterinariya guruhi tomonidan chorvachilik va uy hayvonlari ustidan veterinariya nazorati va kuzatuvini o'tkazish hamda chorva mollari saqlanadigan joylarda dezinfeksiya ishlari olib borilib, tuman SEO va JSB xodimlari tomonidan epidemiologik surishtiruv ishlari o'tkazildi.

Davronbek SULAYMONOV,
Sirdaryo viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.
Rasul XUDOYBERGANOV,
boshqarma bo'lim bosh inspektori, katta leytenant.

Surxondaryo viloyati Boysun tumanida "Qirim-Kongo gemorragik isitma kasalligi tarqalishining oldini olishda FVDT tegishli xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

MAVSUMIY HARAKATLAR

Mazkur tadbir davomida mutaxassislar tomonidan kasallikning epidemiologiyasi va epizootiyasi, kasallikning oldini olishda mavjud muammo, kamchiliklar va ularni hal qilish yo'llari, uy hayvonlarini emlash tartibi, kasallik kelib chiqishi mumkin bo'lgan hududlarni keng qamrovli dezinfeksiya, dezinfeksiya tadbirlarining samaradorligi to'g'risida ma'ruzalar o'qildi.

Shuningdek, kasallikka gumon qilingan bemorni qabul qilib olishi va davolash ishlarining olib borilishi, tegishli dori-darmonlar, suyuqliklar, dezmoddalar bilan ta'minlanishi, izolyatorning tashkil etilganligi hamda bemorlar bilan muloqotda bo'lganlarni kuzatuvga qabul qilishga tayyorgarligi amalda ko'rib chiqildi. Bemor uyidagi uy hayvonlarini va uni boqiladigan joylarda kanalarga qarshi kurash, kanallardan laboratoriya uchun namunalar olish tadbir-



lari, kanalarga qarshi kurashda ishlatiladigan kiyim-bosh, anjomlar va dezmoddalardan foydalanish ko'rsatildi. Kanalarga qarshi kurashda, kanalar aniqlangan hayvonlarni boqishda, molxonalarni tozalash ishlarida alohida e'tibor beriladigan holatlar bo'yicha kuzatuvchilarga tushuntirish ishlari olib borildi.

F.SHAYMARDANOV,
Surxondaryo viloyati FVB axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.

J.VAPPAYEV,
boshqarma bo'lim boshlig'i, kapitan.

XODIMLAR SOG'LIQ'INI O'YLAB...

Hozirgi kunda Buxoro neftni qayta ishlash zavodida 3371 ishchi-xodim ishlamoqda. Shulardan 2714 nafar erkaklar, 657 nafar ayollarni tashkil etadi. Ishchi-xodimlarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash zavod ahamiyatiga molik bo'lgan muhim vazifadir. Ushbu maqsadlarga erishish uchun shaxsiy himoya vositalari, maxsus kiyim-kechak, gigiyena vositalari bilan ta'minlangan ish xonalari, ovqatlanish xonalari, yuvinish xonalari zamonaviy ta'mirlanib, barcha qulayliklarga ega.

Gulchiroy UMAROVA,
BNQZ ZMT namuna oluvchisi.

MUSOBAQA

Yashnobod tumanidagi 307-umumta'lim maktabida otaliqqa olingan yoshlar bilan sportning stol tennisi bo'yicha musobaqa tashkilashtirildi. Musobaqa g'oliblariga esdalik sovg'alari topshirildi.

G'RIZAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir kotibiyati va avtoxo'jaligi binolarida YXTTEB inspektori, mayor.

ZILZILADAN
MUHOFAZALANISH

Tabiiy ofatlar vaqtida inson o'z hayotini saqlab qolishi uchun o'zini boshqara olishi va bosqlik bilan harakat qilishi kerak. Buning uchun zilzilagacha nima qilish zarurligini bilishimiz, ishxona, ko'cha va boshqa joylarda o'zimiz va atrofimizdagilar xavfsizligini ta'minlash maqsadida binodan chiqish yo'llarini oldindan belgilab qo'yish, xavf bo'lganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish choralari o'rganishimiz lozim.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibotlar davomida binolarning texnik xavfsizligiga alohida e'tibor qaratish va tabiiy va texnogen holatlar yuzaga kelishini o'z vaqtida profilaktika qilish, ularning oldini olish salbiy ta'sirlarini kamaytiradi.

G.KADIROVA,
Shayxontohur tumani FV bo'limi bo'linma kichik inspektori, kichik serjant.

KROSS-FIT

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida yong'in-qutqaruv bo'linmalariga yangi qabul qilingan va lavozimga tayinlangan harbiy xizmatchi va xizmatchilarning boshlang'ich kurs tayyorgarligidan o'tayotgan tarkibi bilan kross-fit bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

Mashg'ulotlar davomida har bir tinglovchi o'z jismoniy va jangovar mahoratini maxsus sport anjomlarida sinab ko'rdilar. Bu esa o'z navbatida, olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlashga yaxshi natija bermoqda.

U.SOLIYEV,
FVV BT va MOM sikl o'qituvchisi, podpolkovnik.

M.ASATOV,
sikl o'qituvchisi, mayor.



KUHLILAR ANIQLANDI

Toshkent shahar FVB O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi Toshkent shahar kengashi hamda Toshkent shahar hokimiyati bilan hamkorlikda FVV Akademiyasida "Yosh qutqaruvchi" musobaqasi tashkil etildi. Poytaxtimizdagi 2-sektor yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni qutqaruvchilik kasbiga qiziqtirish maqsadida o'tkazilgan tadbirda 16 ta jamoa 5 ta shart bo'yicha bellashdilar.

Musobaqa davomida yoshlarning shijoatiga, tezkorligiga jiddiy ahamiyat qaratildi. Xususan, arqondan maxsus asbob-anjomlar yordamida yuqori qavatli binoga chiqish hamda shartli ravishda suv ustidan arqon yordamida dor yo'lidan o'tish chodimi tez va mustahkam

qilib vaqtiga bajarish harakatlari amalga oshirildi. Bemorga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish jarayonlari ham hech kimni befarq qoldirmadi. Qiziqarli savol-javoblarda ham ishtirokchilar faol qatnashdilar. Ularning ichki ruhiyati, jismoniy tayyorgarligi ustozlarining bergan ta'lim-tarbi-

yasi barchani to'liqlantirdi. Belashuv juda ham qiziqarli, murosasiz kechdi. "Yosh qutqaruvchi" ko'ngillilari klublari a'zolarining har bir harakatlari, bilim darajasi nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan baholab borildi.

Musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra, umumta'lim maktablari orasida 1-o'rinni Yunusobod tumani 58-umumta'lim maktabi, 2-o'rinni Chilonzor tumani 168-umumta'lim maktabi, 3-o'rinni esa Uchtepa tumani 116-umumta'lim maktabi jamoasi egalladi. Kollej,



litseylar o'rtasida esa 1-o'ringa Chilonzor tumani Jahon tillari litseyi, 2-o'ringa Uchtepa tumani Yuridik kolleji, 3-o'ringa Yakasaroy tumani To'qimachilik akademik litseyi jamoalari munosib ko'rildi.

G'oliblar maxsus diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Rushana ROZABOYEVA,
O'ZJOKU harbiy jurnalistika yo'nalishi talabasi.

ZIYORAT TASHKIL QILINDI

Buyuk Sohibqiron Amir Temur tavaludining 688 yilligi munosabati bilan FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi doimiy va o'zgaruvchan shaxsiy tarkibi ishtirokida Samarqand shahridagi Amir Temur maqbarasiga ziyorat tashkil qilindi.



Tashrif davomida buyuk Sohibqiron Amir Temurning hayoti va faoliyati, maqbara kimga atab qurilgani, u yerda kimlarning qabrlari mavjudligi hamda maqbaraning faoliyati yuzasidan tushunchalar berildi. Harbiy xizmatchi va xizmatchilar Amir Temurning hayoti va faoliyati haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Ziyorat so'nggida shaxsiy tarkib diqqatga sazovor joylar bilan tanishtirildi.

A. TURDIYEV,
FVV BT va MOM kadrlar bo'limi katta ofitseri, leytenant.

KO'RIK-TANLOV

FVV Akademiyasi kursantlari o'rtasida "Eng yaxshi yosh kitobxon" ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.



Tanlovda kursantlar "O'zbek adabiyoti bilimdoni", "Jahon adabiyoti bilimdoni", "Buyuk mutafakkir va adib" shartlari bo'yicha bellashdilar.

Qizg'in va murosasiz kechgan ko'rik-tanlov yakuniy natijalariga ko'ra, birinchi o'rinni 2-batalyon kursanti Yorqinbek Abrolov egallagan bo'lsa, ikkinchi o'rin 4-batalyon kursanti Shohjahon Jumanovga nasib etdi. Uchinchi o'ringa esa 3-batalyon kursanti Sardor Izbosarov munosib ko'rildi.

G'olib va sovrindorlar diplom, tashakkurnoma va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Farhodjon XOJAYEV,
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi, mayor.

Farg'onalik o'g'lonlar tengdoshlari orasidan saralanib, FVV tasarrufidagi muassasalarga muddatli harbiy xizmat o'tash uchun kuzatildi.

HARBIY XIZMATGA KUZATILDI

Tantanal marosimda Sharqiy harbiy okrug qo'shinlari, viloyat FVB, O'zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi va Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi vakillari, faxriylar, ota-onalar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

Saf maydoniga davlat bayrog'i olib kiritilib, davlatimiz madhiyasi ijro etildi. Shundan so'ng, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari so'zga chiqib, Vatanni himoya qilishdek muqaddas burchni bajarishga shay turgan o'g'lonlarga kuch-g'ayrat tiladilar.

Ahliiddin ALIJONOV,
Farg'ona viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.



MUHIM TADBIR

Bektemir tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan Bektemir tumani hududida joylashgan 2-sektor "Gulbog" MFY hududida joylashgan 66-sonli oilaviy poliklinikada favqulodda vaziyatlarda birlamchi ehtiyot choralarini ko'rish, bino va turli obyektlarda xavfsizlikni ta'minlash talablari, texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilish lozimligi tushuntirildi. Ushbu profilaktik targ'ibot tadbiri davomida ishchi-xodimlari bilan yo'riqnama o'tkazildi. Shuningdek, Qrim-Kongo gemorragik isitma kasalligining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar hamda ushbu kasallikka qarshi chora-tadbirlar xususida ma'lumotlar berildi va zaruriy eslatmalar tarqatildi.

Doniyor KENJABOYEV,
Bektemir tumani FV bo'limi P va NB katta inspektori, kapitan.



BOJXONA POSTIDA

Toshkent viloyati Chinoz tumani hududidagi "Yallama" avtomobil chegara-bojxona postida "Sanktsiyalanmagan (egasiz) ionlashtiruvchi nurlanish manbaalari topilishi bilan bog'liq avariyaning bartaraf etishda FVDT idoralarning hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida ko'rgazmali seminar va maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Mashqning nazariy qismi "Yallama" avtomobil chegara bojxona posti majlislar zalida bo'lib, unda Toshkent viloyati FVB, Bojxona boshqarmasi, Sanitariya-epidemiologiya osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi mas'ul xodimlari so'zga chiqdilar.

Seminar davomida mavzu bo'yicha o'quv mashqi rahbariga va ishtirokchilarga tushunchalar berildi. Qo'shni respublika hududidan ionlashtiruvchi nurlanish manbaini olib kirgan maxsus avtoullov aniqlanganda, O'zbekiston Respublikasi DXX chegara qo'shinlari o'z vaqtida tezkorlik bilan Bojxona xizmatini vaziyatdan ogohlantirib, despetcherlik xizmati orqali huquqni muhofaza qiluvchi idoralari va FVDT xizmatlarini jalb qilish bo'yicha aloqa almashinuv jarayoni hamda mas'ul xodimlarning harakatlari amalda ko'rsatib berildi. "Yallama" avtomobil chegara



bojxona posti shaxsiy tarkibi tomonidan yuqori radiatsion fon ko'rsatkichi qayd qilingan avtomashina joylashtirilgan maydoni Milliy gvardiya va IBB xodimlari tomonidan chegara-bojxona posti atrofini o'rab olishdi va tergov-tezkor tadbirlari olib borilib, kirishni taqiqlovchi belgilar o'rnatildi. Ishchi-xodimlarni evakuatsiya qilish choralari ko'rildi.

S.SHODIYEV,
Toshkent viloyati FVB RK va TBMTB boshlig'i, kapitan.

XON-ATLAS FESTIVALI



Xon-atlas festivali munosabati bilan "Qamchiq" MQYQBda xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchi va xizmatchi xotin-qizlar atlas, adras, baxmal kabi milliy matolardan tayyorlangan milliy liboslarda xizmat vazifasiga kirishdilar.

Sh.ABDUSATTOROVA,
"Qamchiq" MQYQB
Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha bosh mutaxassis.

TAYYORGARLIK

G'ijduvon tumani hokimi rahbarligida viloyat FVB, Ichki ishlar, Mudofaa, va boshqa FVDT tarkibiga kiruvchi korxonalar, tashkilot-muassasalar rahbarlari ishtirokida tumanda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan qo'mondonlik-shtab o'quv mashqiga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish masalalariga oid yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda o'quv mashqlarining maqsad va vazifalari, asosiy g'oyasi mazmun-mohiyati to'g'risida tushunchalar berildi.

F.SHOMURODOV,
G'ijduvon tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, kapitan.

Yashnobod tumani FV bo'limi profilaktika inspektorlari tumandagi yirik bozorlardan biri bo'lgan "Aviasozlar" dehqon bozorida yakka tartibda profilaktik suhbatlar olib borildi.

BOZORDA...

Unda bozor ma'muriyati, shuningdek, bozor hududidagi tadbirkorlar ishtirok etdilar.

Tadbir davomida rasta va do'konlarning yong'in xavfsizligi holati ko'zdan kechirilib, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan har bir tadbirkorga ogohlantirish va tavsiyalar berildi.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi inspektori,
katta leytenant.

DAVRA SUHBATI



Toshkent viloyati Olmaliq shahar FV bo'limi xodimlari, gaz va elektr ta'minoti idoralari, fuqarolarining o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa daxldor tashkilotlar tomonidan Olmaliq shahar "Uvaysiy" MFY hududidagi qurilish ishlari olib borilayotgan ko'p qavatli uy quruvchilariga yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilish zarurligi tushuntirildi. Quruvchilarga ko'rgazmali eslatmalar va plakatlarni tarqatildi.

E.JUMABOYEV,
Olmaliq shahar FV bo'limi katta
inspektori, katta leytenant.
Sh.SHERQULOV,
bo'lim boshlig'i o'rinbosari, katta
leytenant.

SUV MANBALARI



Buxoro viloyati FVB "Muborak" NGQCHB OBYXTTEB 20-YQQ shaxsiy tarkibning jangovarligini oshirish maqsadida yong'in o'chirish, tezkor rejaga qayta ishlov berish hamda yong'inga qarshi suv olgichlari va suv hovuzlari sozligi o'rganilib, shay holatga keltirildi.

F.RO'ZIYEV,
Buxoro viloyati FVB
"Muborak" NGQCHB OBYXTTEB
20-YQQ smena boshlig'i,
katta leytenant.

SEMINAR

Samarqand viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi tomonidan Samarqand shahar "Sayhun" MFYdagi 77-umumta'lim maktabida o'quv-seminari o'tkazildi.

Unda boshqarma boshlig'i o'rinbosari polkovnik G.Alaviddinov so'zga chiqib, o'z nutqida FVV faoliyati bugungi kunda yoshlar bilan tizimli ish olib borilayotganligi hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ular bilan turli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha ko'nikmalar berilayotganligi, favqulodda vaziyatlar turlari, kelib chiqish sabablari

bo'yicha tushunchalar berib o'tdi. Seminar yakunida maktab o'quvchilariga viloyat FVB mintaqaviy qutqaruv otryadi va yong'in-qutqaruv texnika va asbob-anjomlaridan qanday foydalanish kerakligi tushuntirib o'tildi.

Sanjar ADILOV,
Samarqand viloyati FVB
HFXO'M o'qituvchisi.

MAQSADIMIZ FUQARO MUHOFAZASINI TA'MINLASH

Qashqadaryo viloyati FVB obyektlarda yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan viloyat hududidagi o'ta muhim toifalangan obyektlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va fuqaro muhofazasini ta'minlashga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi.

Mazkur tadbir davomida favqulodda vaziyatlar va texnogen tusli avariya sodir bo'lganida obyekt-da qanday harakat qilish, fuqarolarni va moddiy tovar boyliklarini qay yo'sinda evakuatsiya qilish, yuqumli

kasalliklardan qanday saqlanish, kasallik yuqtirib olganda nimalar qilish kerakligi to'g'risidagi fikrlar bayon etildi. Fuqarolar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarga ham to'xtatilib, tegishli ko'rsatmalar



berildi. Ishirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga aniq javoblar oldilar.

Adham MUZAPOV,
Qashqadaryo viloyati
FVB bosh inspektori,
kapitan.

"O'zbektelekom" AK "TShTT" filiali va uning quyi bog'lamlarida FVV Fuqaro muhofazasi instituti o'qituvchilari va Toshkent shahar FVB xodimlari ishtirokida seminar o'tkazildi.

FILIALDA FM TADBIRLARI



Seminar mobaynida xizmat jarayonida va turmushda yong'inlar va is gazi bilan zaharlantirish kelib chiqish sabablari hamda favqulodda vaziyatlar to'g'risida ma'lumotlar berilib, ularning oldini olishda nimalarga e'tibor qaratish zarurligi yetkazildi.

Tadbir savol-javoblar tariqasida qizg'in o'tkazilib, ishtirokchilarga zilzila, yong'in va is gazi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish bo'yicha eslatmalar tarqatildi.

A.HAKIMOV,
"O'zbektelekom" AK "TShTT"
filiali oliy toifali muhandisi.

GAZ VA CHANG

Yonuvchi gazning havodagi kislorod bilan aralashmasi yonish uchun yetarli darajada yig'ilib qolgan muhitda haroratning ko'tarilishi, uning o'z-o'zidan alanganib ketishiga sabab bo'ladi. Aralashmaning yonishiga sabab bo'lgan dastlabki harorat, uning alanganib harorati deb ataladi.

Gazning havo bilan aralashib yonishi har qanday aralashma holatida ham amalga oshavermaydi, balki ma'lum chegaraviy miqdordagi aralashma hosil bo'lganidagina yonishi mumkin. Shuning uchun ham aralashmalarning alanganadigan miqdorlari quyi va yuqori chegaralar sifatida belgilanadi. Bunda gazlarning quyi chegara miqdori, deb ularning alanga hosil qilgan holatidagi minimal miqdori tushuniladi va

ana shu quyi chegara, sanoat korxonalarining yong'in va portlash xavfiga moyillik toifalarini aniqlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Qurilishda ishlatiladigan ba'zi yonuvchi modda va ashyolarning yonish va portlash xavfi o'zaro bir-biriga o'xshash bo'ladi. Ammo ahamiyatli farqi shundaki, portlash jarayonida alanganing atrofga tarqalish tezligi yong'indagiga nisbatan juda yuqori bo'ladi.

Modda va ashyolarning yonuvchanlik va portlash xususiyatlari ularning yonish jarayonidagi agregat holatini belgilovchi ko'rsatkichlar orqali aniqlanadi.

Y.OXUNOV,
Prezident Administratsiyasi
binosida YXTTE 1-bo'linmasi
kichik inspektori,
kichik serjant.

BINAR DARSII

FVV Akademiyasi Tillar kafedrasida katta o'qituvchilari podpolkovnik M.Badalbayeva va G.Xatamovlar 4-batalyon 402-guruh kursantlariga "Hazard, risk and risk assessment" mavzusidagi amaliy mashg'ulot binar dars usulida o'tkazildi.

Kun yong'inliklarini ingliz tilida yoritish bilan boshlangan darsda kursantlar tomonidan o'tilgan mavzu bo'yicha tayyorlab kelingan slaydlar, plakatlarni, videolardan unumli

foydalanilib davom ettirgan holda gapirish, tinglab tushunish, o'qish kabi til ko'nikmalarini mustahkamlandi. Kursantlar tomonidan yangi mavzuga oid tayyorlangan kichik guruhlarda, juftlikda va yakka tartibdagi o'yinlar, krossvord, savol-javoblariga boy bahs-munozaralar darsga bo'lgan qiziqishlarini namoyon etgan bo'lsa, bu ularning mustaqil tarzda muloqot davomida sohaviy atamalar va iboralarni qo'llash ko'nikmalariga ega ekanligini ham ko'rsatdi.

Mazkur mashg'ulotda kursantlarga mavzu bo'yicha asosiy



ma'lumotlardan tashqari qiziqarli video va audio materiallar ham taqdim etildi. Dars jarayonida o'qituvchilar tomonidan kursantlarning motivatsiyasini oshirish uchun har xil interaktiv topshiriqlar berildi va didaktik o'yinlar orqali ham jarayon tashkillashtirildi.

Mashg'ulot jarayoni bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda tashkil etilib, kursantlarga mavzu doirasida qiziqarli va qo'shimcha ma'lumotlarni ham berildi.

FVV Akademiyasi
axborot xizmati.

Маърифат соати

АЖДОДЛАРИМИЗ ЖАСОРАТИ ВА МАТОНАТИ – МАНГУ БАРҲАЁТ

Бутун дунёда миллионлаб инсонлар умрига зомин бўлган, мислсиз йўқотишлар, талафот ва мусибатлар олиб келган Иккинчи жаҳон уруши инсоният тарихидаги энг даҳшатли, энг қонли қирғин бўлганини ҳеч ким унутмайди. Юз минглаб навқирон ватандошларимиз жанг майдонларида қон тўкиб, жон бердилар. Уларнинг жасоратидан кам бўлмаган жон фидолик намуналари сифатида фронт ортида ҳам аёллар, кексалар, ёш болалар чинакам қаҳрамонлик кўрсатишган.

Ўша оловли йилларда Ўзбекистонда етти ёшдан етмиш ёшгача бутун халқимиз “Ҳамма нарса – фронт учун, ҳамма нарса – ғалаба учун!” дея ишлаган, яшаган, ором ва ҳаловатидан воз кечиб, тинимсиз оғир меҳнат қилган. Ўзбекистон фронт учун зарур барча нарсаларни етказиб берадиган муҳим таянч марказлардан бирига айланган. Ишлаб чиқариш корхоналари ҳарбий мақсадларда қайта ташкил этилган. Уруш йилларида республикамиздан жанг майдонларига самолётлар, кўплаб танк ва қурол-яроғлар, юзлаб ҳарбий-санитар поездлари, дала ошхоналари, палаткалар, улкан миқдорда озиқ-овқат, кийим-кечак маҳсулотлари етказиб берилган. Кўп миллатли Ўзбекистон халқи бутун тараққийпарвар инсоният қатори Иккинчи жаҳон урушида фаол иштирок этиб, фашизм устидан қозонилган буюк ғалабани таъминлашга муносиб ҳисса қўшган. Эл-юртимизнинг уруш йилларида кўрсатган мардлик ва қаҳрамонлиги биз учун улкан жасорат мактаби, ғурур-ифтихор манбаи бўлиб, вақт ўтгани сайин бу ўлмас қадриятларнинг аҳамияти тобора ортиб бормоқда.

Дарҳақиқат, шу ўринда айтиш лозимки, уруш ўчоғига айланган ҳудудлардан Ўзбекистонга эвакуация қилинган инсонларга, жумладан, 200 мингдан ортиқ ёш болаларга халқимизга азалдан хос бўлган инсонпарварлик, меҳрибонлик кўрсатилган. Юртдошларимизнинг сўнгги бурда нони ҳам улар билан баҳам кўрилган. Фашизм устидан қозонилган ғалаба нақадар қimmatга тушганини юртимизда яшаётган ҳар қайси оила, ҳар қайси одам яна ва яна бир бор англаши, қалбидан ўтказиши табиийдир. Ўзбекистонда ўша пайтда 6,5 миллион халқ яшаган бўлса, шунинг 1,5 миллиондан кўпроғи урушда қатнашганининг ўзи, барча эркаклар, мардларимиз қўлига қурол олиб, ягона душманимизга қарши чиққани-

дан далолат беради. Қарийб ярим миллион юртдошимиз шу урушда ҳалок бўлгани, қанча-қанчаси ногирон, ма-



йиб-мажруҳ бўлиб қайтгани, қанча-қанча аёллар бева, болалар етим бўлиб қолганини, ҳар қайси оила ҳамон эсидан чиқармайди.

Ўтганларни хотирлаш, сафимизда юрганларнинг эса қадрига етиш керак. Урушнинг совуқ ва қаҳратон кечинмаларини фақатгина жанг майдонларида қатнашган қаҳрамонларимиздек, ҳеч биримиз ҳис қила олмаймиз. Уларнинг айтиб берган кечинмалари барчамизга оддий бир ҳикоядек туюлади. Аммо ўша ҳикоянинг даҳшатли воқеалар ривожини ўз-ўзидан баён этилиб қолмаган. Ташкент шаҳрининг марказида ва жойларда барпо этилган Хотира майдонларида урушдан қайтмаганларни эслаш, уларнинг хотираси, руҳлари олдида бош эгиш учун келган ёш қарилар, аҳолимиз ва хорижлик меҳмонлар билан гавжум бўлганида кўриш, кузатиш мумкин. Халқимизнинг уруш йилларидаги чинакам матонат ва жасорати бутун инсоният учун ибратдир. Инсон хотира билан тирик, кадр билан улғу. Ўтганларни, уларнинг хайрли ишларини, жасоратини ёдга олмоқ, эъзозламоқ халқимизга хос эзгу фазилатлардандир. Иккинчи жаҳон урушида ҳалок бўлган минглаб юртдошлар-

римиз хотирасини ёд этиш, оловли жанггоҳлардан омон қайтган боболаримизга, оғир кунларни сабр-бардош билан енгган, машаққатли дақиқаларда ҳам ўзлигини йўқотмаган, иймони бутун юртдошларимизга ҳурмат-эҳтиром кўрсатиш том маънода миллий қадриятга айланди. Шу боис, юртимизда 9 май – Хотира ва қадрлаш куни сифатида кенг нишонланиши анъанага айланган. Ушбу улғу айём кунини ҳаммамиз, энг аввало, уруш майдонла-

шу мақсадга эришиш йўлида Ватанимизнинг эртанги кунини, келажагини бўлмиш, бизнинг таянчимиз ва суянчимиз бўлган ёш авлодни тарбиялаш, фарзандларимизга замонавий билим бериш ва уларни ҳақиқатан ҳам ҳал қилувчи кучга айлантириш энг устувор вазифамиз эканини ҳеч қачон унутмаслигимиз керак.

Хотира ва қадрлаш куни чинакам миллий, умумхалқ байрамига айланди. Шу кунини Ўзбекистоннинг барча қабристонларидан зиё-

кимнингдир жигаргўшаси, демак, шу Ватанимизнинг фарзанди-ку! Ҳар бирининг ордидан қанча одам қон йиғлаб қолди. Умрининг сўнгги лаҳзасига қадар кўзларида ёши қуримай, ўғлини, жигаргўшасини кутиб ўтган қанчадан-қанча мотамсаро она бор эди. Даҳшатли урушда ҳалок бўлган отажонини кўрмаган, унга, лоақал, бир бора бўлсин: “Дадажон!”, деб мурожаат қилолмай яшаганлар – қанча. Урушда ҳалок бўлган ҳар бир ўзбекистонлик, Ватанимиз фарзанди эди.

Уларни ёддан чиқаришга ҳеч биримизнинг ҳаққимиз йўқ. Зеро, кунлар кунларни, йиллар йилларни қувиб, бу кўҳна чархи фалак шу сирли коинот яралганидан бери айлангани айланган. Айни шу инсоннинг абадий – боқий эмаслиги онг-шууримизда хотира деган тушунчани пайдо қилган бўлса, ажаб эмас. Негаки, хотира ўтганларни эслаш, бугунни кечанинг ёди билан тўлдириш, яъни уни янада бойитиш имконини беради.

Ҳаёт ҳамиша ширин. Байрамлар инсоннинг қалб торларини черта олиши билан ҳаётни янада ширинроқ қилади, одамларни элу юртни кўпроқ севишга ундайди, оламда меҳр-мурувват, ҳурмат-эътибор, кадр-қиммат ва оқибат уруғларининг кўпроқ сочилишига ҳисса қўшади. Инсонга ҳар кунини тинчлик-осойишталик ва хотиржамлик керак. Тинчлигини йўқотган хонадон ҳам, мамлакат ҳам асло хотиржам бўла олмайди. Тинчлик-хотиржамлик – тараққиёт гаровидир. Биз азал-азалдан тинчликсевар халқимиз. Айнан шу ғояга бағишланган буюк миллий маънавий меросимиз бор. Улар тинчликнинг қадрига етишни тарғиб этади, уруш эса батамом қораланади. Хотира – одамларнинг вафотидан кейин ҳам бу дунёда яшаши учун имкон берадиган бирдан-бир макон. Одамлар – орда қолганлар хотирасида яшашига интилиш илинжи кишини тарбиялайди. Уни эзгуликларга, кишиларнинг бирор-бир қорига яраб қолишга, умрни зое кетказмасликка ундайди. Халқ бугунги тинч-хотиржам замонни асраб-авайлаш, тинчликни қадрига етиш учун ҳам урушни, унинг қаҳрамонларини, ғалабага муносиб ҳисса қўшганларни хотирасида сақлайди.

Саҳифани “Vaziyat”
мухбири Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлади.

ридан қайтмаган юртдошларимизнинг муқаддас хотираси олдида бош эгиб, уларнинг руҳ-покларига ҳурмат бажо келтирамиз. Жанг майдонларида мардлик, жасорат кўрсатган, фидокорона меҳнат қилган фахрийларимизга таъзим қиламиз. Ҳозирги тинч-осойишта ҳаётимиз, мусаффо осмонимиз учун уларга чексиз миннатдорчилик билдирамиз.

Таъкидлаш жоизки, хотира ва қадрлаш тушунчаси чуқур маънога эгадир. Ушбу кунда фашизмга қарши курашларда қатнашган, ўз Ватанини ҳимоя қилишда жонини фидо қилган, шунингдек, Тўмарис, Широқ, Спитамен, Жалолиддин Мангуберди, Нажмиддин Кубро каби қаҳрамонлар ва асрлар давомида халқ орзу қилган эркинлик учун курашган Абдулла Қодирий, Маҳмудхўжа Бехбудий, Мунаввар-қори Абдурашидхонов, Абдулхамид Чўлпон, Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат, Усмон Носир каби миллий қаҳрамонларимиз ҳам ёдга олинади, хотирланади. Чунки ўтганларнинг номларини ёд этиш, хотирасини ҳурмат билан эслаш, уларнинг арвоқларини шод қилиш муқаддас одат сифатида қон-қонимизга сингиб кетган. Айнан

ратчилар аримайди. Халқ хотираси деганда киши кўз ўнгидан Ватан ибтидосидан бугунига қадар шу юрт, шу халқ, деб курашган, куч-қудрати, ақл-заковатини аямаган, керак бўлса, шу йўлда жонини фидо қилган не-не буюк зотлар бир-бир ўтади. Спитамен, Широқдан Туркон Хотун, Маҳмуд Торобийгача, Соҳибқирон Амир Темур, Мирзо Улуғбекдан Заҳриддин Муҳаммад Бобургача, Жалолиддин Мангубердидан, Нажмиддин Куброгача ёдга тушаверади. Бу байрамда Иккинчи жаҳон урушида ҳалок бўлганлар хотирланади, Афғонистон урушида ҳалок бўлганлар шўро сиёсатининг беғуноҳ қурбонлари сифатида эсланади, умуман, ўтганлар руҳи ёдга олинади, мустақиллик йилларида хизмат бурчини бажариш чоғида ҳалок бўлган ҳарбий хизматчилар ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари ходимларининг хотираси олдида ҳурмат бажо келтирилади. Бу дунёнинг марказида ҳазрати инсон туради.

Мотамсаро она сиймоси пойига битилган: “Сен доимо қалбимдасан, жигарим!” – деган сўзларнинг инсонийлигини, самимийлигини ўйлаб, бир юракдан ҳис этиб кўрайлик. Ҳалок бўлган тирик жон

АКАДЕМИЯНИНГ БАХТИЁР КУРСАНТИ

Давлатимиз томонидан берилётган эътибор ўсиб келаётган ёш авлоднинг орзу-мақсадлари томон йўл очаётганини бугун жамиятимизнинг ҳар жабҳасида гувоҳи бўлаёмиз.

Қалбда юрт меҳри, ардоғидан тугён ураётган ҳар бир ўғил-қиз келажаги буюк бўлган Янги Ўзбекистоннинг устуларидир.

Сухбатдошимиз ФВВ Академияси курсанти Сирожиддин Тошмухаммедов ҳам биз таҳриф этаётган ана шундай истиқболли порлоқ ёшлардан.



– Айтинг-чи қачондан ҳарбийликка қизиқа бошлагансиз, умуман оилангизда ҳарбийлар бўлганми?

– Ҳарбий соҳага қизиқишим отаонам, бобомнинг ўғитлари асосида шаклланди. Ҳарбийларнинг тартибли, интизомли, озода юришлари, мулоқотлари ҳамisha эътиборимда бўлган. Қолаверса, отамнинг, “армияга борсанг, ҳақиқий бақувват йигит бўласан!”, деган сўзлари ҳозиргача қулоғим остидан кетмайди.

У кишининг насиҳат ва маслаҳатлари ушбу соҳага бўлган қизиқишимни янада ортишига бекиёс ҳисса кўшган.

– Соҳадаги устозларингиз ҳақида тўхталиб ўтсангиз?

– Бугунги кунда нуфузли

Академиянинг бахтиёр курсанти бўлишимда устозларимнинг ҳам ўрни катта, албатта. Коллежда Жумаев Зухриддин ёнгина хавфсизлиги бўйича яхши, анча билим-кўникмага эга мутахассис устозлардан бири бўлган. Дарс жараёнларини кўпроқ амалий тарзда ўтарди. Ҳарбий соҳа бўйича анча маълумотларни олардик. Ҳарбий хизматда кўнгилли ёнгина ўқириш дружинаси раҳбари, сержант Али Абдурахмоновдан шартли ёнгина ўқириш бўйича кўникмаларига баҳоли қудрат эга бўлганмиз.

– Сиз таҳсил олаётган Академияда яратилган шароитлар ҳақида ҳам сўзлаб беринг.

– Академияда яратилган шароит-

лар жудаям яхши. Бошқа олийгоҳлар сингари замонавий янги технологиялар, зарур қурол-аслаҳалар, янги замонавий русумдаги ёнгина машиналари, махсус техника ва анжомлар мавжуд. Кўнлик машғулотларимиз ўз вақтида бажарилади. Компьютер саводхонлиги бўйича жуда яхши тўғараклар бор. Тартиб-интизом, озодалик, кийиниш маданияти юқори даражада шаклланди. Ҳар бир иш белгиланган кун тартиби бўйича амалга оширилади.

– Олинган назарий билимларни амалиётда тўғри қўллаш учун нима ларга аҳамият бериш керак?

– Дарсларимиз давомида мутахассислар, устозлар билан мунтазам суҳбатлар амалга оширилади. Бунда ўзимизни қизиқтирган саволларга жавоб оламиз. Бундан ташқари, йил давомида мунтазам равишда амалиёт машғулотларда иштирок этиб, назарий олган билимларимизни амалиётда қўллаб борамиз.

– Биламизки, фақуллода вазиятларда, хусусан, ёнгина ўқириш даврида руҳий-психологик тайёргарлик муҳим аҳамиятга эга. Академияда олиб борилаётган машғулотларда бу борада қандай тайёргарликлардан ўтилади?

– Академиямиздаги мавжуд руҳий тайёргарлик йўлакчасида мунтазам равишда иш олиб борилади. Унда шартли равишда ёнгиналар содир бўлиши, ёнгиндан жароҳатланганларни ёнгина жойидан олиб чиқиш, уларга ёрдам бериш, биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш ёки шок ҳолатга тушиб қолганида уларга ёрдам беришда турли хил тавсиялар кўникмаларни ўрганиб, амалиёт жараёнларида қўллашга тайёрланамиз.

– Суҳбатингиз учун раҳмат!

Рушана РОЗАБОЕВА
суҳбатлашди.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЙОНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
М. САНАЕВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқлиниши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташқилотлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6000 нуска

САЙҒОҚ НЕГА ЙИҒЛАЙДИ?

Дунё ғаройиботларга тўла. Айниқса, жониворлар оламини кузатсангиз, бунга ўзингиз иқдор бўласиз.

Одатда кийик ва унинг турдошлари турли жойда турлича номланади. Мамлакатимизда “Қизил китоб”га киритилган бу жониворлардан олқор ва сайғоқ кўп учрайди. Масалан, етилган кийикнинг қорнида ғудда пайдо

бўлади. Ўша ғудда қичишиб кийикка озор бера бошлайди. Шунда у ўткир қиррали тошга бориб қорнини ишқайди ва натижада ғуддаси ёрилиб ичидан қонга ўхшаш қора модда оқиб чиқади. Буни билган овчилар айнан ўша қора моддага жуда ўч бўладилар. Чунки, ўша нарса дунёдаги энг хушбўй атир, яъни энг аъло мушкни анбардир. Кийик, сайғоқ

ва олқорда шундай хусусият борки, улар хасталанса, оёғи синса, тоғ чўққиларига чиқиб, тош ёғини топиб, ялаб ўзини ўзи даволайди. Тош ёғи эса, ўша сизу бизга маълум мумиёдир.

Энди кийикнинг яқин турдоши сайғоқларнинг баъзи хусусиятларини билиб қўйишимиз фойдадан холи эмас. Олимларнинг аниқлашича, сайғоқ юз йилгача яшайди. Унинг шохи бошқа шоҳдорларникидан анча мустаҳкам бўлади. Сайғоқнинг шохи куйдирилганда чиқадиган тутидан жониворлар қочади. Маълумот учун яна бир жиҳатни айтмасак бўлмайди, сайғоқ думининг учи ўта заҳарлидир. Шунинг учун сайғоқни сўйгандан сўнг думини дарҳол кесиб ташлаш лозим бўлади.

Табиатан ўтхўр бўлган сайғоқ баъзида гўштхўр-

лик ҳам қилар экан. Яъни, у бурнини илоннинг уяси тешигига тиқиб, ўзига чорлаши жуда қизиқ ҳодиса. Унинг бурнидаги нафасда оҳанрабодек хислат бор. Буни қарангки, ҳикоят ва эртақларда жониворларни аврашга, гипноз қилишга уста бўлган илоннинг ўзи аксинча сайғоққа алданиб, унинг олдига чиқиб келади. Фурсатни ғанимат билган сайғоқ эса, илонни дарров ейди. Ўтхўр ҳайвон ҳисобланмиш сайғоқ нима учун илонни ейди, бу ҳали ўрганилмаган, бу ғалати ҳодиса жумбоқлигича қолмоқда. Сайғоқ илонни егандан сўнг кўзи ёшланади. Бу ёш кўзи атрофида бир неча кундан кейин қотиб қолади. Одамлар худди шу кўз ёшни “тарёки говқуҳий” дейдилар ва заҳарларни даф қилиш учун ундан фойдаланишди. Бу тарёк зидди заҳардир. Овчиларнинг айтишича, сайғоқни тутишда жуда эҳтиёткор бўлиш лозим экан. Чунки, у одамни шохи билан сузиб мажруҳласа, соғайиш жараёни жуда қийин кечар экан.

Масрур САНАЕВ,
интернет материаллари
асосида тайёрлади.

